Nazarov Anvarjon Turg'unboyevich
University of business and science
"Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: anvarjon@gmail.com

TALABALARDA JISMONIY TARBIYAGA QADRIYATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10162680

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalar va o'sib kelayotgan yosh avlod sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va taraqqiy ettirish, sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini tarbiyalash va unga ongli munosabatda bo'lish haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabat, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, kasb mahoratlari

Kirish. Dunyoda insonning jismoniy barkamolligi, salomatligi va imkoniyatlarini o'rganish, jismoniy rivojlanishning aqliy va ijtimoiy faoliyatiga ta'sirini tadqiq qilish, chunonchi oliy o'quv yurti talabalari, bo'lajak kadrlar jismoniy tarbiyasini rivojlantirishning yangicha ilmiy-amaliy va pedagogik andozalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda yangicha usullar hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid juda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Talabalarning jismoniy faolligini o'rganish, kasbiy faoliyat mazmuni hamda talabalarda jismoniy tarbiyada shaxsiy faoliyatining asosiy manbalaridan biri jismoniy tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan va sub'ektiv ahamiyat (qiymat)ga ega bo'lgan motivatsiya hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyatda ijtimoiy-pedagogik muhitni sog'lomlashtirish, unga bo'lgan munosabatini qadriyat sifatida tarbiyalash masalasini dolizarbligi, kelajak avlodni, talaba-yoshlar hamda kadrlarni kasbiy faoliyatga munosib qilib tarbiyalash vazifasi global ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz oliy ta'lim o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarning jismoniy tarbiyasini rivojlantirishning zamonaviy, innovatsion ilmiy-pedagogik metodikasini yaratish," ularning mukammal va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishlarida jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzini innovatsion pedagogik yondashuv asosida rivojlantirish zarurati paydo bo'lmoqda. Shu bois davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarda «Millatning salomatligini - barcha yoshdagi aholining sog'lom dunyoqarashini, jismoniy, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, jismoniy salomatligini mustahkamlash to'g'risida doimiy g'amxo'rlik qilish», hamda «Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish» vazifasining qo'yilishi yuqoridagi omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

jismoniy tarbiyaga talaba-yoshlarning qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish;

talaba-yoshlarning jismoniy tarbiya jarayoniga bo'lgan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik mezonlarini ochib berish;

talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning tashkil qilish va usullari. Yetakchi horijiy davlatlar tadqiqotlarini o'rganish, tahlil qilish, pedagogik tajriba,

test, suhbat, modellashtirish, matematik-statistik tahlil qilish, pedagogik kuzatish hamda olingan natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama qilish. Jismoniy tarbiya qadriyatlar mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarining rivojlantirishning nazariy-metodologik mazmuni, ijtimoiy zarurati quyidagilardan iborat:

talabalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda jismoniy hamda ma’naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta’minlash jarayonini pedagogik muammo sifatida chuqur o‘rganish va tahlil qilish;

talabalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

talabalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishdagi pedagogik jarayonga, ta’lim tizimiga xos tamoyillar va qonuniyatlarini ishlab chiqish;

talabalar jismoniy tarbiyasining tarkibiy qismlari bo‘lgan jismoniy sog‘lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, jismoniy salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishning ijtimoiy-pedagogik mezonlarini yaratish;

talabalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish, jismoniy va ma’naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta’minlash dasturini ishlab chiqish.

Talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish jarayonida quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanildi: tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, kommunikativlik, qadriyatli munosabatga doir quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1) Talabalarda jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish;

2) Amaliy faoliyatda jasurlik, irodalilik fazilatlarini jismoniy baquvatlilikni va faoliyatga chidamlilik sifatlarini rivojlantirish;

3) Talabalarda jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda ularning qiziqishlarini o‘stirish, kuchli sportchi bo‘lib yuksalishlariga yo‘llanma berish va iqtidorlarini kashf etish;

4) Gigienik –sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish va emotsional-qadriyatli munosabatni rivojlantirish;

5) O‘z-o‘zini namoyon etish usullarini ochib berish.

Biz Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida o‘tkazgan tadqiqot va tahlillarimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishga doir dissertatsiya ishlari ko‘lamini kengaytirish va yangicha yondashuvlarni ilgari surish;

talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish, ularda jismoniy va ruhiy quvvat uyg‘unligiga erishishga hamda ulardan oqilona foydalanishga, jismoniy tarbiya va sport sohasida yangicha pedagogik yondashuv va metodika ishlab chiqishga, ularda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga doir tadqiqotlarni ko‘paytirish;

jismoniy tarbiya va sportga qaratilgan hukumat doirasidagi ishlarga ratsional yondashuv, sport sohasini rivojlantirishga va u orqali yoshlarda vatanparvarlikni o‘stirishga, jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar, xalqaro bellashuvlarni tashkil qilish, oliy ta’limda aqliy va jismoniy yuksak ta’lim tamoyilining to‘liq amalga oshirilishini tanlash zarur.

Xulosa. Talabalarda jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari misolida) mavzusidagi maqolamiz bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish, har tomonlama mukammal shaxs bo‘lib ulg‘ayishlarida, salomatlikni islox qilishda yangicha yondashuv asosida ta’lim berish

zarurati paydo bo‘lmoqda. Talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish kompleks rivojlantiruvchi tizimning bir qismi hisoblanadi.

Pedagogikada “qadriyat” tushunchasi shaxsning pedagogik ta’sirlari va o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan bog‘liq holda faoliyat va xulq-atvor motivlari, qadriyatlar munosabatlari tizimini o‘rganish va rivojlantirish, ta’lim va ijtimoiy-madaniy faoliyat maqsadlarini tahlil qilish orqali ochib berilgan.

3. Motivatsion-semantik komponentni shakllantirishda quyidagi vazifalar hal qilinadi: sog‘lom turmush tarziga ustuvorligi to‘g‘risida xabardorlikni rivojlantirish; ularning qadr-qimmatini tushunishni rag‘batlantirish, shaxsga o‘zi hamda jamiyat uchun kerakli fazilatlar va munosabatlarni rivojlantirishda yordam berishi aniqlangan.

Talabalarning mashg‘ulotlarini tashkil etishda ularni antropometrik ko‘rsatgichlarini inobatga olgan holda jismoniy tarbiyaga yo‘naltirish, sport turlarini tanlashga yordamlashish hamda tanlagan turlari va boshqalar bo‘yicha sport musobaqalarini muayyan reja asosida o‘tkazilishi asos bo‘lgan.

Talabalarning jismoniy tarbiyaga qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishda qiziqtirish, sport bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish va jismoniy tarbiya bilan band etishning ta’lim-tarbiyaviy tizimi yaratilgan. Shu bilan birga jismoniy tarbiya sohasining sog‘lomlashtiruvchi-tiklovchi qismining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda talabalarda bilim olishdan kelib chiquvchi charchash, toliqish, ruhiy zo‘riqish va boshqa organizm bilan bog‘liq holatlarni tiklovchilik vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4956-son Farmoni // 2017 yil 16 fevral.

2. Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning ikkinchi yo‘nalishi. Videoselektor yig‘ilishi ma’ruzasi. –Toshkent, 19.03.2019 yil.

3. Арвисто М.А. Ценностные отношения как мотивационное ядро спортивной деятельности / М.А.Арвисто // Научные труды ВНИИФК за 1970 г., т. 1. - М. - 1972.

4. Арвисто М.А. Ценностные отношения как мотивационное ядро спортивной деятельности / М.А.Арвисто // Научные труды ВНИИФК за 1970 г., т. 1. - М. - 1972.

5. Raximova B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munosabat-larning shakllantirish tizimi. – Toshkent; Fan, 2005.

Nazarov Anvarjon Turgunboyevich
University of business and science
Senior teacher (PhD) of the "Preschool-primary education and physical education" department
E-mail: anvarjon@gmail.com

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING STUDENTS' VALUABLE ATTITUDES TO PHYSICAL EDUCATION

Annotation. This article provides theoretical information on the preservation, strengthening and promotion of the health of students and the growing younger generation, the education of values of a healthy lifestyle and a conscious attitude to it. and practical recommendations are presented.

Key words: Valuable attitude to physical education, healthy lifestyle, physical fitness, physical qualities, professional skills